

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA KREATIV  
PEDAGOGIK FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH:

# NAZARIY, METODIK VA DIAGNOSTIK TAHLIL

**Bo'ritosh Ne'matov,**

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

## **Annotatsiya:**

*Maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ pedagogik fikrlashni rivojlantirish muammosi zamonaviy ta'lim sifati, o'qituvchining kasbiy subyektligi va o'quvchilarning bilish faolligini qo'llab-quvvatlash nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativligini umumiy shaxsiy ijodkorlik yoki tashqi metodik originallik sifatida emas, balki pedagogik vaziyatni ko'p variantli tahlil qilish, metodik jihatdan asoslangan yechim ishlab chiqish, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish hamda natijani refleksiv baholashga yo'naltirilgan kasbiy fikrlash sifati sifatida asoslashdan iborat. Tadqiqotda nazariy tahlil, ilmiy adabiyotlarni qiyosiy o'rganish, konseptual umumlashtirish va mezon-indikatorli modellash tirish usullaridan foydalanildi. Natijada kreativ pedagogik fikrlashning kognitiv,*

*motivatsion, metodik va refleksiv komponentlari aniqlashtirildi; ularni baholash uchun muammoni pedagogik tahlil qilish, metodik variantlilik, didaktik originallik va refleksiv baholash mezonlari taklif etildi. Maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativligi dekorativ metodik yangilik emas, balki o'quvchi rivojlanishiga yo'naltirilgan, dalilga asoslangan pedagogik qaror qabul qilish qobiliyati ekanligi asoslanadi.*

## **Kalit so'zlar:**

*kreativlik, boshlang'ich ta'lim, kreativ pedagogik fikrlash, divergent tafakkur, pedagogik diagnostika, refleksiya, metodik variantlilik, indikator.*



## Аннотация:

В статье рассматривается развитие креативного педагогического мышления у учителей начальных классов в контексте качества образования, профессиональной субъектности педагога и поддержки познавательной активности младших школьников. Цель исследования состоит в обосновании креативности учителя начальных классов не как общей личностной способности или внешней методической оригинальности, а как качества профессионального мышления, обеспечивающего вариативный анализ педагогической ситуации, разработку методически обоснованного решения, учет возрастных и индивидуальных особенностей учащихся и рефлексивную оценку результата. Используются методы теоретического анализа, сравнительного изучения научной литературы, концептуального обобщения и критериально-индикаторного моделирования. В результате уточнены когнитивный, мотивационный, методический и рефлексивный компоненты креативного педагогического мышления; предложены критерии его оценки, включающие педагогический анализ проблемы, методическую вариативность, дидактическую оригинальность и рефлексивное оценивание. Обосновано, что креативность учителя начальных классов представляет собой не декоративную методическую новизну, а способность принимать доказательно обоснованные педагогические решения, ориентированные на развитие учащегося.

## Ключевые слова:

креативность, начальное образование, креативное педагогическое мышление, дивергентное мышление, педагогическая диагностика, рефлексия, методическая вариативность, индикатор.

## Abstract:

The article examines the development of creative pedagogical thinking in primary school teachers in relation to the quality of education, teachers' professional agency, and the support of pupils' cognitive activity. The purpose of the

study is to substantiate the creativity of a primary school teacher not as a general personal ability or an external manifestation of methodological originality, but as a quality of professional thinking that enables the variable analysis of pedagogical situations, the design of methodologically grounded solutions, consideration of pupils' age-related and individual characteristics, and reflective evaluation of pedagogical results. The study applies theoretical analysis, comparative review of scientific literature, conceptual generalization, and criterion-indicator modelling. As a result, the cognitive, motivational, methodological, and reflective components of creative pedagogical thinking are specified; criteria for its assessment are proposed, including pedagogical problem analysis, methodological variability, didactic originality, and reflective evaluation. The article argues that the creativity of a primary school teacher is not decorative methodological novelty, but the ability to make evidence-based pedagogical decisions aimed at pupils' development.

## Key words:

creativity, primary education, creative pedagogical thinking, divergent thinking, pedagogical diagnostics, reflection, methodological variability, indicator.

## Kirish

Zamonaviy boshlang'ich ta'lim oldida turgan muhim vazifalardan biri o'quvchilarda mustaqil fikrlash, savol berish, muammoni ko'ra olish, dalil keltirish va o'z fikrini asoslash ko'nikmalarini shakllantirishdir. Bu vazifa bevosita boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi, metodik moslashuvchanligi va kreativ pedagogik fikrlashi bilan bog'liq. Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchining keyingi intellektual, kommunikativ va ijtimoiy rivojlanishi uchun poydevor vazifasini bajargani sababli pedagogning har bir metodik qarori rivojlantiruvchi mazmunga ega bo'lishi zarur.

O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni modernizatsiya qilish, ta'lim jarayoniga innovatsion shakl va usullarni joriy etish, o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari qatorida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta'lim sifati va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish vazifalari belgilangan<sup>1</sup>. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham har bir shaxsning salohiyatini rivojlantirish,

<sup>1</sup> O'z

2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. URL: <https://lex.uz/docs/-4312785>



bilimli va barkamol avlodni tarbiyalash masalasi strategik yoʻnalish sifatida qayd etilgan<sup>2</sup>.

Kreativlik masalasi xalqaro taʼlim tadqiqotlarida ham dolzarb hisoblanadi. OECD tomonidan PISA 2022 doirasida kreativ tafakkur alohida baholangan boʻlib, unda oʻquvchining turli va original gʻoyalarni ishlab chiqish, ularni baholash hamda takomillashtirish qobiliyati asosiy mezon sifatida olingan<sup>3</sup>. Bu holat kreativlikni faqat sanʼat yoki alohida ijodiy faoliyat bilan cheklab boʻlmayligini, balki u taʼlim jarayonining umumiy sifat koʻrsatkichi sifatida ham qaralishi zarurligini koʻrsatadi.

Muammoning dolzarbligi shundaki, pedagogik amaliyotda kreativlik koʻpincha darsni bezash, koʻrgazmali materiallardan koʻp foydalanish, oʻyin elementlarini koʻpaytirish yoki noanʼanaviy topshiriqlar berish bilan tenglashtiriladi. Bunday yondashuv kreativlikning tashqi koʻrinishini aks ettiradi, lekin uning psixologik-pedagogik mexanizmini ochib bermaydi. Kreativ pedagogik fikrlash esa oʻqituvchining pedagogik vaziyatni koʻp variantli tahlil qilish, muammoning sabablarini aniqlash, didaktik yechimlarni moslashtirish va oʻquvchining bilish faolligini rivojlantirishga qaratilgan kasbiy qobiliyatidir.

Tadqiqotning maqsadi boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida kreativ pedagogik fikrlashni rivojlantirishning nazariy va metodik asoslarini aniqlash hamda uni baholash uchun mezon va indikatorlar tizimini taklif etishdan iborat.

## Metodlar

Tadqiqot nazariy-metodik xarakterga ega. Unda empirik eksperiment natijalari emas, balki ilmiy adabiyotlar, xalqaro baholash yondashuvlari, milliy taʼlim siyosati hujjatlari va pedagogik diagnostika mantiqi asosida konseptual umumlashtirish amalga oshirildi. Shu sababli maqolada sabab-oqibat xulosalari emas, balki nazariy asoslangan metodik va diagnostik takliflar beriladi.

Tadqiqotda birinchi navbatda nazariy tahlil metodi qoʻllanildi. J.P. Guilfordning divergent tafakkur haqidagi konsepsiyasi<sup>4</sup>, E.P. Torrancening kreativ tafakkur mezonlari<sup>5</sup>, L.S. Vygotskiyning ijodiy tasavvur haqidagi qarashlari<sup>6</sup>, T.M. Amabilening kreativlikning ijtimoiy-psixologik modeli<sup>7</sup>, R.J. Sternberg va T.I. Lubartning kreativlikka doir nazariy qarashlari<sup>8</sup>, M.A. Runco va A. Craftning taʼlimdagi kreativlik haqidagi tadqiqotlari<sup>9</sup> tahlil qilindi.

Ikkinchi metod sifatida qiyosiy tahlildan foydalanildi. Bu metod kreativlikni psixologik, pedagogik va metodik darajalarda farqlash imkonini berdi. Psixologik darajada kreativlik tafakkur jarayoni sifatida, pedagogik darajada kasbiy sifat sifatida, metodik darajada esa oʻquv vazifasini hal qilishning moslashtirilgan usuli sifatida tahlil qilindi.

Uchinchi metod konseptual modellashtirish boʻlib, uning yordamida “kreativ pedagogik fikrlash” tushunchasi aniq operatsion mazmunga ega boʻlgan pedagogik konstrukt sifatida belgilandi. Toʻrtinchi metod mezon-indikatorli tahlil boʻlib, u mazkur konstruktning baholash mumkin boʻlgan koʻrsatkichlar tizimiga aylantirishga xizmat qildi.

2 Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda PF-158-son Farmoni. “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi toʻgʻrisida. URL: <https://lex.uz/docs/-6600413>

3 OECD. PISA 2022 Creative Thinking. Paris: OECD, 2024. URL: <https://www.oecd.org/en/topics/sub-issues/creative-thinking/pisa-2022-creative-thinking.html>

4 Runco M.A. Divergent thinking, creativity, and ideation // The Cambridge Handbook of Creativity / Ed. by J.C. Kaufman, R.J. Sternberg. Cambridge: Cambridge University Press, 2010. P. 413-446.

5 Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. Lexington, MA: Personnel Press, 2006.

6 Виготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. Москва: Просвещение, 2000. 93 с.

7 Amabile T.M. The Social Psychology of Creativity. New York: Springer-Verlag, 2003.; Amabile T.M., Pratt M.G. The dynamic componential model of creativity and innovation in organizations // Research in Organizational Behavior. 2016. Vol. 36. P. 157-183.

8 Sternberg R.J., Lubart T.I. The Concept of Creativity: Prospects and Paradigms // Handbook of Creativity / Ed. by R.J. Sternberg. Cambridge: Cambridge University Press, 2000. P. 3-15.

9 Runco M.A. Creativity: Theories and Themes: Research, Development, and Practice. 2nd ed. San Diego: Elsevier Academic Press, 2014.; Craft A. Creativity in Schools: Tensions and Dilemmas. London: Routledge, 2005.

## Natijalar

Tahlil natijasida boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativ pedagogik fikrlashi quyidagicha ta'riflandi: kreativ pedagogik fikrlash — bu o'qituvchining pedagogik vaziyatni ko'p variantli tahlil qilish, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, didaktik muammoga mos yangi yoki moslashtirilgan metodik yechim ishlab chiqish hamda natijani refleksiv baholash qobiliyatidir.

Mazkur ta'rif kreativlikni umumiy shaxsiy fazilatdan kasbiy-pedagogik qaror qabul qilish sifatiga o'tkazadi. Natijada kreativlik darsning tashqi bezagi yoki tasodifiy yangilik emas, balki pedagogik maqsad, o'quvchi ehtiyoji va ta'lim natijasi bilan bog'liq dalillangan faoliyat sifatida talqin qilinadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ pedagogik fikrlashning to'rt tarkibiy komponenti ajratildi. Kognitiv komponent o'qituvchining muammoni tahlil qilish, dars mazmunini qayta tashkil etish va bir pedagogik vaziyatga turli izohlar berish qobiliyatini ifodalaydi. Motivatsion komponent kasbiy o'sishga intilish, yangilikka ochiqlik va o'quvchi rivojlanishiga mas'uliyatli munosabat bilan belgilanadi. Metodik komponent kreativ g'oyani real dars jarayoniga moslashtirish, topshiriqlarni yosh xususiyatiga muvofiq tuzish va differensial yondashuvni amalga oshirishni anglatadi. Refleksiv komponent esa qo'llangan metodning samaradorligini baholash, xatolarni aniqlash va keyingi dars uchun tuzatish kiritish qobiliyatini bildiradi.

**Jadval 1.**  
**Kreativ pedagogik fikrlashning komponentlari, mezonlari va indikatorlari**

| Komponent          | Mezon                                        | Asosiy indikatorlar                                                                                                          | Baholash manbasi                                     |
|--------------------|----------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------|
| <b>Kognitiv</b>    | Muammoni pedagogik tahlil qilish             | O'quv qiyinchiligini aniqlash; sabablarni ajratish; vaziyatga bir nechta izoh berish                                         | Dars kuzatuv, pedagogik vaziyat tahlili              |
| <b>Motivatsion</b> | Kasbiy yangilanishga tayyorlik               | O'z faoliyatini takomillashtirishga ehtiyoj; yangilikka ochiqlik; o'quvchi rivojlanishiga mas'uliyat                         | Suhbat, refleksiv yozuv, portfel                     |
| <b>Metodik</b>     | Metodik variantlilik va didaktik originallik | Bir mavzu bo'yicha turli topshiriqlar tuzish; differensial yondashuv; standart mashqni rivojlantiruvchi vazifaga aylantirish | Dars ishlanmasi, metodik topshiriq, ekspert baholash |
| <b>Refleksiv</b>   | Natijani tahlil qilish va tuzatish kiritish  | Metod samaradorligini baholash; muvaffaqiyatsizlik sababini aniqlash; keyingi dars uchun qaror chiqarish                     | Darsdan keyingi tahlil, o'z-o'zini baholash varaqasi |

Taklif etilgan mezonlar asosida kreativ pedagogik fikrlashning uch darajasini ajratish mumkin. Past darajada o'qituvchi tayyor metodik namunalarni takrorlaydi, vaziyatga moslashishda qiyinaladi va refleksiv tahlil yuzaki bo'ladi. O'rta darajada o'qituvchi ayrim vaziyatlarda yangi yechimlar taklif qiladi, biroq ularni tizimli asoslashda qiyinchilik seziladi. Yuqori darajada o'qituvchi muammoni aniq tahlil qiladi, bir nechta metodik variant ishlab chiqadi, tanlangan yechimni o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtiradi va natijani refleksiv baholaydi.

## Muhokama

Olingan natijalar kreativlikni boshlang'ich ta'limda bir vaqtning o'zida psixologik va pedagogik hodisa sifatida talqin qilish zarurligini ko'rsatadi. J.P. Guilford va E.P. Torrance yondashuvlari kreativlikning tafakkur jarayonlari bilan bog'liq tomonini ochib beradi<sup>1</sup>. Biroq boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyatida kreativlikni faqat ravonlik, moslashuvchanlik yoki originallik ko'rsatkichlari bilan cheklash yetarli emas. Pedagogik yechim o'quvchining yoshi, dars maqsadi, o'quv materialining mazmuni va rivojlantiruvchi natija bilan mos bo'lishi kerak.

T.M. Amabile tomonidan ishlab chiqilgan model kreativlikni soha bo'yicha bilim, kreativ fikrlash ko'nikmalari va ichki motivatsiya birligida tushuntiradi<sup>2</sup>. Bu yondashuv boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyatida ayniqsa muhim, chunki metodik yangilik kasbiy bilimlarsiz tasodifiy, ichki motivatsiyasiz esa formal xarakterga ega bo'lib qoladi. L.S. Vygotskiyning yondashuvi kreativlikni ijtimoiy tajriba va madaniy vositalar bilan bog'laydi<sup>3</sup>. Demak, pedagog kreativligi shaxsiy fantaziya emas, balki kasbiy tajribani qayta tashkil etish va o'quvchining rivojlanish imkoniyatini kengaytirishga qaratilgan faoliyatdir.

Pedagogik amaliyot uchun muhim xulosa shundan iboratki, kreativlikni rivojlantirish tasodifiy seminarlar yoki umumiy tavsiyalar bilan cheklanmasligi kerak. U muammoli pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, metodik variantlar ishlab chiqish, hamkorlikda dars loyihalash va refleksiv monitoring orqali shakllantiriladi. UNESCOning ta'lim kelajagi haqidagi yondashuvida ham ta'limni hamkorlik, mas'uliyat va ijtimoiy kelishuv asosida yangilash zarurligi qayd etiladi<sup>4</sup>. Shu sababli o'qituvchi kreativligi individual qobiliyat sifatida emas, balki kasbiy hamjamiyat, metodik muhit va refleksiv amaliyot bilan bog'liq rivojlanuvchi sifat sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqotning cheklanishi shundaki, maqolada empirik eksperiment natijalari taqdim etilmagan. Shuning uchun taklif etilgan komponentlar va mezonlar eksperimental isbotlangan model sifatida emas, balki nazariy va metodik jihatdan asoslangan diagnostik konstrukt sifatida talqin qilinadi. Keyingi tadqiqotlarda mazkur mezonlar asosida ekspert baholash varaqasi, kuzatish kartasi va refleksiv tahlil rubrikasi ishlab chiqilishi, ularning validligi va ishonchliligi tekshirilishi zarur.

## Xulosa

1. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ pedagogik fikrlashni rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning

muhim psixologik-pedagogik shartidir.

2. Kreativ pedagogik fikrlash umumiy ijodkorlik emas, balki pedagogik vaziyatni ko'p variantli tahlil qilish, mos didaktik yechim ishlab chiqish va natijani refleksiv baholashga qaratilgan kasbiy sifatdir.

3. Kognitiv, motivatsion, metodik va refleksiv komponentlar o'zaro bog'liq holda rivojlangandagina kreativlik barqaror kasbiy kompetentlikka aylanadi.

4. Kreativlikni baholash umumiy taassurotga emas, aniq mezonlar, indikatorlar va rivojlanish darajalariga tayanishi kerak.

5. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativligi o'quvchining bilish faolligini kuchaytirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va darsning rivojlantiruvchi imkoniyatlarini oshirishga xizmat qilgandagina pedagogik jihatdan asoslangan hisoblanadi.

1 Runco M.A. Divergent thinking, creativity, and ideation // The Cambridge Handbook of Creativity / Ed. by J.C. Kaufman, R.J. Sternberg. Cambridge: Cambridge University Press, 2010. P. 413-446.; Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. Lexington, MA: Personnel Press, 2006.

2 Amabile T.M. The Social Psychology of Creativity. New York: Springer-Verlag, 2003.; Amabile T.M., Pratt M.G. The dynamic componential model of creativity and innovation in organizations // Research in Organizational Behavior. 2016. Vol. 36. P. 157-183.

3 Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. Москва: Просвещение, 2000. 93 с.

4 UN

ark:/48223/pf0000379707